



AI YORDAMIDA REALIYALARNI ANIQLASH VA TARJIMA QILISH USULLARI.

Sharofitdinov Shaxzod Fazliddin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Magistratura talabasi

shaxzodsharofitdinov0106@gmail.com

+998 94 362 77 66

ANOTATSIYA

Hozirgi kunda millionlab jahon durdonalari o'zbek tiliga mohirona tarjima qilinmoqda lekin ayrim bir jabhalarda haligacha muammolar ko'rinib turibdi. Ayniqsa, realiyalarni tarjima qilishda anchagina qiyinchiliklar bor deya olamiz. Hozirgi texnologiyalar rivojlangan asrda sun'iy intellekt realiyalarni aniqlash va uni tarjima qilishda insonlarga ko'p jabhalarda yordami tegmoqda. Bu tezisda aynan qanday usullar va yondashuvlar asosida realiyalarni aniqlash va tarjima qilish atroflicha yoritiladi. Bundan tashqari, Named Entity Recognition (NER) texnologiyasi realiyalarni tarjima qilishdagi o'rnini ham o'rganib chiqamiz.

Kalit so'zlar: *Realiya, sun'iy intellekt, AI tarjima vositalari, globallashuv, tarjima jarayoni*

METHODS OF IDENTIFYING AND TRANSLATING REALIA USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Sharofitdinov Shakhzod Fazliddin ogli

Master's Student

Chirchik State Pedagogical University

shaxzodsharofitdinov0106@gmail.com

+998 94 362 77 66

ABSTRACT

At present, millions of world literary masterpieces are being skillfully translated into the Uzbek language; however, certain challenges still remain in some areas of translation. In particular, significant difficulties can be observed in the translation of realia. In the era of rapidly developing technologies, artificial intelligence provides substantial assistance in identifying realia and translating them across various domains. This thesis explores the specific methods and approaches used to identify and translate realia with the help of artificial intelligence. In addition, the role of Named Entity Recognition (NER) technology in the process of translating realia is also examined.

Keywords: *Realia, artificial intelligence, AI-based translation tools, globalization, translation process.*

МЕТОДЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Шарофитдинов Шахзод Фазлиддин угли

Магистрант

Чирчикский государственный педагогический университет

shaxzodsharofitdinov0106@gmail.com

+998 94 362 77 66

АННОТАЦИЯ

В настоящее время миллионы мировых литературных шедевров успешно переводятся на узбекский язык, однако в некоторых аспектах переводческой деятельности по-прежнему сохраняются определённые проблемы. В частности, значительные трудности возникают при переводе реалий. В эпоху стремительного развития технологий искусственный интеллект

оказывает существенную помощь в выявлении и переводе реалий в различных сферах. В данном тезисе подробно рассматриваются методы и подходы к выявлению и переводу реалий с использованием искусственного интеллекта. Кроме того, анализируется роль технологии распознавания именованных сущностей (Named Entity Recognition, NER) в процессе перевода реалий.

Ключевые слова: Реалии, искусственный интеллект, инструменты перевода на основе ИИ, глобализация, переводческий процесс.

KIRISH

Ayni vaqtda sun'iy intellekt har sohada insonning almashtirib bo'lmas yordamchisiga aylanmoqda. Shu bilan bir qatorda sun'iy intellekt ta'lim sohasini ham anchayin o'zgartirdi deyishimiz mumkin. Hozirgi kunda tarjima sohasida google translate va shunga o'xshash tarjima online tarjima saytlari matnlarni tez va oson tarjima qilib berishiga qaramay, realiyalarni tarjima qilishda bir necha xatoliklarni uchratishimiz mumkin. O'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, realiyalarni tarjima qilishda va aniqlashda sun'iy intellekt anchayin salmoqli ishlar qila oladi. O.S.Axmanovanning «Словарь лингвистических терминов » nomli lug'atida unga quyidagicha ta'rif berilgan: Realiya deganda — borliqdagi ash'yoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, ma'lum bir tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birliklar tushuniladi¹. V.N Komissarov «Теория перевода» asaridagi realiya tushunchasi bu muayyan xalq, mamlakat yoki tarixiy davrga xos bo'lgan, boshqa tilda to'liq ekvivalenti bo'lmagan predmet, hodisa, an'ana yoki tushuncha nomi². M. L. Vaysburd realiyaga mamlakatshunlik asnosida yondoshadi va bu haqda quyidagi fikrlarni aytadi: Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat³. Ammo bunday qarashda mamlakat hayotidagi turli o'zgarishlar, taraqqiyot bosqichlari bo'lishi hamda bir mamlakatda keng tarqalgan narsa, boshqasida unday bo'lmasligini, shuningdek, bunday xil so'zlarning tillararo bir - biriga o'tib turishi mumkinligini e'tibordan qochirilgan. Bunga misol tariqasida sobiq ittifoq davrida paydo bo'lgan *sputnik* so'zini keltirish mumkin. Bu kalima aslida sobiq ittifoq davrida paydo bo'lgan. Chunki dunyo bo'yicha ilk bor aynan shu davlatda mazkur ish amalga oshirilgan. Muayyan so'zning realiya tarzida paydo bo'lishi, avvalo, o'sha realiya yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog'liq bo'lishini ham nazardan qoschirmaslik lozim. O'sha narsaning qanday ahamiyat kasb etishi bilan u boshqa mamlakatlarga, balki dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham mumkin. Har bir xalqning, millatning o'z qadriyatlarini va madaniyatini bor. Realialar qadriyatlar va madaniyatlarini o'z holicha, o'zgartirilmagan holda boshqa millatlarga ochib berishda juda ham zarurdir. Aslida realiya u muayyan xalq, madaniyat, jamiyat yoki davrga xos bo'lgan, boshqa tillarda aynan muqobili bo'lmaydigan so'z yoki tushuncha (masalan, *mahalla*, *yurt*, *sumalak*, *kimono*, *Halloween* va boshqalar). Realiya lotincha "*reālis*" — "haqiqiy, mavjud, real" degan ma'noni bildiradi. Shundan fransuz tiliga *réalité*, rus tiliga *реалия*, keyinchalik boshqa tillarga ham o'tgan. Hozirgi kunda ko'pgina asarlar ko'plab tillarga tarjima qilingan. Tarjimon nafaqat tilni, balki tarjima qilinayotgan mamlakat va o'sha mamlakat madaniyatini ham bilishi kerak. Matnni ma'nosini asl ma'nosidan uzoqlashmagan holda tarjima qilish juda muhim sanaladi. Muammo ko'proq mos tarjima usulini tanlash va madaniy farqlar tufayli

¹ Axmanova O.S Словарь лингвистических терминов Сов. Энциклопедия, 1969

² Komissarov V.N. Теория перевода. – Moskva, 2019.

³ M. L. Vaysburd Реалия как элемент страноведения. – Риз.П. 3., - М., 1972



manbaa tili va tarjima qilinayotgan til o'rtasidagi til ifodasi va mazmundagi farqni imkon qadar bartaraf etishdadir. Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslikda turli muammolar mavjud. Ulardan biri madaniyfarqlartufayli yuzaga keladigan muammolardir. U madaniyatlararo farq deb nomlanadi. Agar siz so'z yoki jumlaning to'g'ridan-to'g'ri biror tilga tarjima qilsangiz, u tarjima jarayonida asl ma'nosidan boshqacha ma'no berishi mumkin. Ba'zi vaqtlarda kitobxon tarjima asar o'qiganda o'sha gapning yo ma'nosini tushunmaydi, yoki boshqacha ma'noni tasavvur qiladi. Shuning uchun tarjima jarayonida mos tarjima usulini tanlash muhim ahamiyatga ega. Nida E "Language, Culture and Translating" kitobida shunday deydi, til nafaqat semantik vosita, balki madaniyatni ifodalovchi vositadir. U tarjimonda uchun madaniyatni chuqur tushunishni muhim deb biladi. Tarjima jarayonida tarjimonda faqat so'zlarning ma'nosini emas, balki madaniy kontekstdagi "qiymatlar, urf-odatlar, ijtimoiy normalar"ni ham inobatga olishi zarur. Nida "formal" va "dinamik" (hozirda "funktional") ekvivalentlik nazariyasini ilgari surgan. Realia (madaniyatga xos tushunchalar) tarjima qilinayotganda, Nida dinamik/ funktsional ekvivalentlikni afzal ko'radi — ya'ni tarjima natijasida maqsadli auditoriyada asl matndagi ta'sirni berishga harakat qilish kerak. U "ekvivalent effekt" tushunchasini keltiradi: ya'ni tarjima qilingan matnning qabul qiluvchi til foydalanuvchilari, asl matnning qabul qiluvchi auditoriyaga o'xshash reaksiyani ko'rsatishi kerak. "Language and Culture" nutqida u tarjimonda madaniyatlararo vositachilik sifatida ko'radi. U tarjimonda vazifasi: ikki madaniyat o'rtasidagi ma'no almashinuvini ta'minlash. Bu vositachilikning muhimligi, chunki tarjimonda faqat matnning o'girish bilan cheklanishi mumkin emas; u asl madaniy ma'nolarni va auditoriyani hisobga olgan holda tarjima strategiyalarini tanlashi zarur⁴.

Hozir realialarni tarjima qilishdagi bir necha usullarni ko'rib chiqamiz.

1. To'g'ridan-to'g'ri tarjima (transliteratsiya / transkripsiya) Realliyaga boshqa tilga asl shakliga yaqin holda o'tkaziladi. Bunda uning asosiy shakli saqlanib qoladi yoki deyarli o'zgarmaydi. Bunga bir necha so'zlarni misol qilishimiz mumkin. Misol uchun, yapon xalqining sport kiyimlaridan biri bo'lgan *kimono* boshqa tillarga tarjima qilinmagani uchun uning asl shaklidan foydalaniladi. Yana bir misol *madrassa* so'zi ham *maktab* so'ziga yaqin ma'noda bo'lsa ham bu ikki so'zni ma'nodosh so'z sifatida ishlatishimiz to'g'ri bo'lmaydi.

2. Izohli qo'shimcha (footnote yoki matn ichidagi izoh) Realliyaga saqlanadi, ammo o'quvchiga qo'shimcha ma'lumot beriladi. Ma'lumot har xil usulda matn yoki rasm ko'rinishida bo'lishi mumkin. Misol uchun, *hanami* → (Yaponiyada bahor payti gilol gullarini tomosha qilish marosimi).

3. Analogik (o'xshash) tarjima Tarjimachi asl realiyaga yaqin, funktsional jihatdan teng bo'lgan o'xshash birlikni tanlaydi. Bu har doim to'liq ekvivalent bo'lmaydi, lekin o'quvchi uchun tushunarli qiladi. Misol: *Thanksgiving* → "Shukronalik bayrami" *ranch* → "ferma" (to'liq bir xil emas, lekin yaqin)

Ingliz tilida *bell-boy* degan realiya bor. Bu mehmonxonalarda mijozlarga xizmat qiladigan mulozimlardir. Aniqrog'i yuqingizni ko'tarishadigan, xonangizga biror narsa kerak bo'lsa keltirib beradigan xizmatchilar bo'lib, odatda ularning xizmatlari uchun choy-chaqa berish urfga kirgan. AQSH mehmonxonalarida ularga choy- chaqa bermasangiz, sayohatingiz qandaydir noma'lum sabablarga ko'ra noxush o'tishi ham mumkin. Masalan, dush qabul qilayotganingizda suv to'xtab qolishi, lift ishlamay qolishi, nomeringizning kaliti eshikka tushmay qolishi hech gap emas. Aslida, bunday kutilmagan ko'ngilsizliklarning ostida ana o'sha xizmatchilarning choy-chaqasini o'z vaqtida va odatdagi summada "rozi qilish" yotadi. Mazkur so'zni inglizcha - ruscha lug'atlarda коридорный, посыльный tarzida beriladi. Aslida bu koridor xizmatchisi yoki xat tashuvchi ma'nolaridan kengroq

M. L. Vaysburd Реалия как элемент страноведения. – Риз.Р. 3., - М., 1972



ma'noga ega. Buni rus tilida yana «мальчик в побегушках» (ish buyursangiz, yugurib bajaruvchi bolakay) ma'nosini bildiradi. Ruscha variant ana shu inglizcha realiyaning o'ziga xos realiya-ekvivalenti desak to'g'ri bo'ladi. Xuddi shunga o'xshagan misol sifatida nemis tilidagi *bunker* realiyasini ham misol keltirish mumkin. Rus tilida unga muqobil sifatida *dot* variant ham keltiriladi. Bundan tashqari uning rus va o'zbek tillarida tranaskriptsiya shaklida berilishini ham ko'rishimiz mumkin. Inglizcha o'lchov birliklaridan *inch* golland tilida *dyum*, ruschada *десятина*, fransuzchada *arpan* realiyalari bilan ifodalanadi.

Endigi navbatda biz Named Entity Recognition (NER) ga ham to'xtalib o'tamiz. Named Entity Recognition (NER) — **bu** matndagi maxsus nomlarni avtomatik aniqlash texnologiyasidir. U tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)ning eng muhim vazifalaridan biridir. NERning vazifasi — matndagi muhim obyektlarni topib, ularni kategoriyalarga ajratish.

Misol uchun, **PERSON** — shaxs nomlari

Masalan: Alisher Navoiy, Elon Musk **LOCATION** — joy nomlari

Toshkent, Parij, Orol dengizi **ORGANIZATION** — tashkilotlar

BMT, Google, Oliy Majlis **DATE** — sanalar

12-mart, 2025-yil **TIME** — vaqt

soat 9:00 **MONEY** — pul birliklari

\$100, 1 mln so'm **PRODUCT** — mahsulotlar

iPhone, Tesla Model S **EVENT** — voqealar, bayramlar

Navro'z, Ikkinchi jahon urushi

NER aynan realiyalar bilan ishlashda juda muhim, chunki realiyalar ko'p hollarda maxsus nomlardan iborat bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, NER realiyalarni tarjima qilishdan oldin ularni aniqlab beruvchi texnologiya bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, Navro'z bayramida Toshkentda sayillar o'tkazildi. NER bunday aniqlaydi, Navro'z — **EVENT / CULTURAL REALIA** Toshkent — **LOCATION**. Reliyaning turini aniqlab bo'lgandan so'ng, uni qaysi tarjima usuliga mosligini belgilaydi. **LOCATION** (joy nomi) → *transliteratsiya*: Toshkent **EVENT** (madaniy hodisa) → *tavsifiy + transliteratsiya*: Navruz (*Asian New Year celebration*)

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tezisda realiyalar, uning tildagi ahamiyati, tarjima usullari va NER usullari ko'rib chiqildi. Shubhasiz, realiyalarni tarjima qilish boshqa so'zlarni tarjima qilishdan anchayin murakkabroq. Har bir realiyani tarjima qilish jarayonida o'z ma'no va shakli yo'qotmagan holda o'quvchiga yetkazib berish lozim. Bunda bir necha tarjima usullaridan foydalanish mumkin. Misol tariqasida, To'g'ridan-to'g'ri tarjima (*transliteratsiya / transkripsiya*), Izohli qo'shimcha (*footnote yoki matn ichidagi izoh*), Analogik (*o'xshash*) usullarini ko'rsatishimiz mumkin. Realiyani tarjima qilishda vaziyatga qarab bir necha usullarda foydalanishimiz mumkin, lekin bir usuldan doimo bir usuldan foydalanish noto'g'ri degan xulosaga keldik. Bunda albatta tarjimonning mahorati alohida ro'l o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Сов. Энциклопедия, 1969
2. Komissarov V.N. Teoriya perevoda. – Moskva, 2019.
3. L. Vaysburd Реалия как элемент страноведения. – Риз.Р. 3., - М., 1972
4. Nida E. Language, Culture and Translating. – Amsterdam: John Benjamins, 2009